

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



XX ASR XITOIY ADABIYOTIDA “YANGI DRAMATURGIYA”

*Shaxnoza Komilova**Katta o'qituvchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “xuaszyuy” (“og'zaki drama”), Yangi san'at, Yapon bosqinchiligi, “bayxuada”, “venyan”, “So'l yozuvchilar jamiyatining”, “Bahorgi tol uyushma” (“春柳社”), “Traviata” (《茶花女》), “Chunyang uyushma”si (“春阳社”), “Yangi drama izdoshlari uyushmasi” (“新剧同志会”).

Annotatsiya: Xitoyda teatr va dramaturgiya asrlar mobaynida milliy an'analar o'zanida rivojlandi. Biroq XX asr boshlariga kelib g'oyaviy yo'nalish, mazmun-mundarija, shaklda yangilanishlar, o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrga kelib jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar tufayli milliy san'atda murakkab jarayonlar yuzaga keldi. An'anaviy teatrda yuzaga kelgan inqirozli holat xorijiy madaniyatni faol o'rganish va shu asnodan dramaturgiya va teatrning yangi ko'rinishining rivojiga turtki bo'ldi. Bu san'at Xitoyga G'arbdan inqilobiy-demokratik g'oyalar bilan birga kirib keldi. Shu davrlarda “xuaszyuy” (“og'zaki drama”) – zamonaviy dramaning ilk namunalari matbuotda chop etila boshladi. “Og'zaki drama” deb nomlanadigan bu san'at turining o'ziga xosligini, dramaning an'anaviy, eski, sinkretik musiqiy shaklidan tubdan farq qilishiga ishora qiladi. Unda odatda qadimgi tilda ijro etiladigan she'riy monolog - ariyalar o'rmini jonli zamonaviy so'zlashuv uslubi asosiy o'rinni egalladi. Nafaqat drama tilida, personajlar nutqida, balki asosiy badiiy tasvir vositalari, pyesalarning parda va aktlarga bo'linishida, qahramonlarning libos va sahna dekoratsiyalarida keskin farqlar ko'zga tashlandi. Yangi san'at – bu voqelikni yangicha idrok etish shakli, xalq ma'naviy hayotining yangi sohasi sifatida maydonga chiqdi. Uni an'anaviy teatrdan farqli jihatlaridan yana biri muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik va boshqa dolzarb masalalarning ko'tarilishidir.

XX asr 20 yillarining boshlarida Xitoyga xorijiy adabiy oqimlarning kirib kelishi kuchaydi. Chet el dramaturgiyasi bilan tanishuv Xitoy uchun antik davrdan zamonaviy davrgacha bo'lgan jahon san'ati xazinalariga yo'l ochdi. Xorijiy dramaturgiya ham yozuvchilarni, ham o'quvchi-

tomoshabinni yangi xitoy dramasi tayyorladi. Demak, 20 yillar Xitoy dramaturgiyasi rivojida uchta asosiy tamoyil kuzatildi: an'anaviy teatr bilan bog'liq milliy meros, xorijiy dramaturgiyani o'zlashtirish va zamonaviy milliy drama. XX asrning 30-yillariga kelib, Xitoyda bir muncha qaltis siyosiy vaziyat yuzaga keldi: Xitoyga Yaponiya hujumi xavf solar edi. Yapon bosqinchilariga qarshi kurash harakatlari jarayonida teatr va dramaturgiya rivoji yanada faollashdi.

"NEW DRAMATURGY" IN 20TH CENTURY CHINESE LITERATURE

Shakhnoza Komilova

Head teacher,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "xuaszyuy" ("oral drama"), New Art, Japanese occupation, "bayhua", "wenyan", "Left Writers' Society", "Spring Willow Association" ("春柳社"), "Traviata" (《茶花女》), "Chunyang Association" ("春阳社"), "New Drama Followers Association" ("新剧同志会").

Abstract: In China, theater and dramaturgy have developed over the centuries in the heart of national traditions. However, by the beginning of the 20th century, there were changes in the ideological direction, content, and form. Due to the economic, social and spiritual changes taking place in the society by this period, complex processes in national art took place. The crisis situation in the traditional theater prompted the active study of foreign culture and the development of a new form of dramaturgy and theater. This art came to China from the West together with revolutionary-democratic ideas. During these times, the first samples of "huashui" ("oral drama") - modern drama - began to be published in the press. Called "oral drama", this art form refers to the uniqueness of the drama, which is radically different from the traditional, old, syncretic musical form. In it, instead of poetic monologues - arias, which are usually performed in an ancient language, a lively modern style of conversation took the main place. Sharp differences were noticed not only in the language of the drama, the speech of the characters, but also in the main means of artistic representation, the division of plays into scenes and acts, and the costumes and stage decorations of the characters. New art - a new form of perception of reality, emerged as a new sphere of people's spiritual life. Another aspect that makes it different from traditional theater is the raising of important socio-political, moral-aesthetic and other topical issues.

At the beginning of the 20s of the 20th century, the influx of foreign literary streams into China increased. Acquaintance with foreign drama opened the way for China to treasures of world art from antiquity to modern times. Foreign dramaturgy prepared both the writers and the audience for the new Chinese drama. Thus, in the 20s, three main principles were observed in the development of

Chinese drama: the national heritage related to traditional theater, the assimilation of foreign drama and modern national drama. By the 30s of the 20th century, a somewhat precarious political situation arose in China: there was a threat of a Japanese attack on China. During the struggle against the Japanese invaders, the development of theater and drama became more active.

«НОВАЯ ДРАМАТУРГИЯ» В КИТАЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

Шахноза Комилова

Директор школы,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «хуашуй» («устная драма»), Новое искусство, японская оккупация, «байхуа», «вэньян», «Общество левых писателей», «Ассоциация весенних ив» («春柳社»), «Травиата» («茶花女»), «Ассоциация Чуньян» («春阳社»), «Ассоциация последователей новой драмы» («新剧同志会»).

Аннотация: В Китае театр и драматургия развивались на протяжении веков в самом сердце национальных традиций. Однако к началу XX века произошли изменения в идеологическом направлении, содержании и форме. В связи с экономическими, социальными и духовными изменениями, происходящими в обществе к этому периоду, происходили сложные процессы в национальном искусстве. Кризисная ситуация в традиционном театре побудила к активному изучению зарубежной культуры и развитию новой формы драматургии и театра. Это искусство пришло в Китай с Запада вместе с революционно-демократическими идеями. В это время в печати стали публиковаться первые образцы «хуашуй» («устной драмы») — современной драматургии. Названная «устной драмой», эта форма искусства отражает уникальность драмы, которая радикально отличается от традиционной, старой, синкретической музыкальной формы. В нем вместо поэтических монологов - арий, которые обычно исполняются на древнем языке, главное место занял живой современный стиль беседы. Резкие различия были замечены не только в языке драмы, речи персонажей, но и в основных средствах художественного изображения, членении пьес на сцены и действия, костюмах и декорациях персонажей. Новое искусство – новая форма восприятия действительности, возникшая как новая сфера духовной жизни людей. Еще одним аспектом, отличающим его от традиционного театра, является постановка важных общественно-политических, морально-эстетических и других актуальных вопросов.

В начале 20-х годов 20 века усилился приток иностранных литературных потоков в Китай. Знакомство с зарубежной драматургией открыло Китаю путь к сокровищам мирового искусства от древности до

современности. Зарубежная драматургия подготовила и писателей, и зрителей к новой китайской драме. Таким образом, в 20-е годы в развитии китайской драматургии наблюдались три основных принципа: национальное наследие, связанное с традиционным театром, ассимиляция зарубежной драматургии и современная национальная драматургия. К 30-м годам 20 века в Китае сложилась несколько шаткая политическая ситуация: возникла угроза нападения Японии на Китай. В период борьбы с японскими захватчиками активизировалось развитие театра и драмы.

INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Xitoy XX asr yangilanish va inqilobiy kurashlar asri bo'lib, mamlakat keskin o'zgarishlarni boshidan kechirdi, konfutsiylik aqidalarining tanazzuli, asrlar davomidagi diniy va jamoa hayotida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Xitoy adabiyotida yangi-yangi muammolar tug'ildi, badiiy yangiliklarning yo'llari izlandi, "inson va jamiyat" muammosining muhimligi yanada oshdi.

XX asr boshida Xitoy adabiyotida bir qator iste'dodli adiblar ijodida rivojlanish yuz berdi. Xitoy so'z san'atining o'ziga xos ko'tarilish davri bu – "4-may 1919-yil" harakatidir. Feodal va chet el imperialistlariga qarshi qaratilgan yangi adabiyot o'zining eng yaxshi namunalarida demokratik, vatanparvarlik, ijtimoiy va milliy – ozodlik g'oyalarini ilgari surdi. "4-may harakati" ziyolilarning inqilobiy chiqishlari bilan boshlanib, tez orada kichik va milliy burjuaziya vakillarining keng tus olishiga, ommalashib ketishga olib keldi. Bungacha Xitoydagi adabiyot faqatgina tanlangan shaxslar uchungina edi, chunki so'zlashuv til "bayxua"da yozilgan asarlar ko'p bo'lishiga qaramay, asosiy adabiy til bo'lib, "venyan" – quloqqa tushunarsiz, o'rganish uchun uzoq vaqt talab qiluvchi qadimiy tildan foydalanilardi. Shuning uchun yangi madaniyatni shakllantirishda asosiy qiyinchilik butunlay bayxua tiliga o'tish edi. Eski realistik an'analarning tiklanishi va yangilarning paydo bo'lishi, insoniylik va xaqparvarlik – zamonaviy xitoy adabiyotining birinchi asoschilardan birining ijodini xarakterlaydi¹.

1924-1927-yilgi inqilobning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi kichik burjuaziya ziyolilarni larzaga soldi. Adabiyotda borgan sari ilojisizlik, individuallik, arxaik kabi kayfiyatlar hukm sura boshladi. Ziyolilarning eng ilg'or qismi, yoshlar muhim g'oyalarni o'rganishga kirishdilar.

Adabiy inqilob boshlanishi "Sin Sin-nyan" jurnali sahifalarida e'lon qilindi. Ular qadimgi aqidalarning kitobiy tildagi adabiyotiga qarshi bosh ko'tardilar. Adabiy inqilob yangi xitoy milliy madaniyatining vujudga kelish tarixida burilish yasagan voqea bo'ldi. Dramaturg, shoir, adabiy tanqidchi Go Mojo shunday deydi: "Yigirmanchi asr ma'naviy va ruhiy yuksalish sari, zulmatga qarshi yorishish sari".²

Ilg'or adabiyot a'zosi bo'lish, yozuvchilardan shijoat, mardlik kabi xususiyatlarni talab qilardi. Mamlakatda hukm surgan eski tartib o'z ijtimoiy va ma'naviy asoslarini yo'qotgan 20-30 yillarda ayniqsa ko'rina boshladi. Bu yillarda ko'plab ilg'or yozuvchilarning badiiy ijodi taraqqiy etgan davr hisoblanadi. Yigirmanchi yillar boshlarida adabiyotga Yevropa, Yaponiya, Angliya ijodkorlarining ijod namunalari tarjimalar orqali kirib keldi, chet el mamlakatlari tarixi

¹ 中国现代文学史。1917-1997。北京/2008。

² "Dramaturgiya Go Mojo" - Fedorenko N. T. Ocherki sovremennoy kitayskoy literatury. 1997.

va adabiyoti nazariyasiga oid juda ko'p kitob va maqolalar xitoy tiliga tarjima qilina boshlandi. Xitoy shu tariqa inqilobiy yozuvchilar birlashmasi a'zolari boshchiligida xitoy "So'l yozuvchilar jamiyatining" tashkil etilishi Xitoy adabiyoti hayotida yirik hodisa bo'ldi. Jamiyat 1930-yilda Shanxayda Lu Sin³, Mao Dun⁴, Jyan Guansi⁵, Tyan Xan⁶, Go Mojo⁷, Ouyang Yuychian⁸, Xun Shen⁹ kabi ilg'or adiblar tomonidan asos solingan. Jamiyat a'zolari o'zlar yaratgan asarlarida xalqning kelajagi, vatan ravnaqi, ma'naviy rivoji yo'lida bir qator ilg'or g'oyalarni ro'yobga chiqarishga harakat qildilar. Shu munosabat bilan o'sha davrda yaratilgan Tyan Xanning "Suv toshqini"¹⁰, Mao Dunning "*Tong otishi*"¹¹, Xun Shenning "Chjao iblis"¹² kabi dramalarni misol keltirish mumkin¹³. So'l yozuvchilar jamiyati a'zolari ayniqsa 30 yillarning birinchi yarmidagi adabiy jarayonlarda juda muhim rol o'ynadi. Mana shu yillarga kelib ilg'or Xitoy ziyolilarning ijtimoiy, madaniy va uning yuksak inqilobiy g'oyalari turli tamoyillari bilan yanada yaqinlashuvi ro'y berdi.

Yangi adabiyot uchun kurash mashaqqatli kechdi. Yangi adabiyotning asosiy jihati xalq muammosini tasvirlashda, ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini roman, qissa, pyesa va she'riy asarlarda fosh etishda namoyon bo'ldi.

1907-yilning bahorida Yaponiyada tahsil olayotgan xitoylik talabalar tomonidan tashkil etilgan "Bahorgi tol uyushma" ("春柳社") sida mashhur fransuz dramasi "Traviata" (《茶花女》)¹⁴ va "Qora qul osmonga chorlaydi" (《黑奴吁天录》)¹⁵ dramasi namoyish etildi. Shundan so'ng Shanxayda "Chunyang uyushma"si ("春阳社") tashkil etildi va "Qora qul osmonga chorlaydi" dramasi yana bir bor sahnada namoyish etiladi, bu esa xitoy dramaturgiyasining niholiga aylandi. 1911-yil inqilobidan so'ng, "Bahorgi tol uyushma" a'zolari Ouyang Yuychian (欧阳予倩) va Lu Jing (陆镜) 1907-yilning bahorida Yaponiyada tahsil olayotgan xitoylik talabalar tomonidan tashkil etilgan "Bahorgi tol uyushma" ("春柳社") sida

³ Lu Sin(鲁迅, Lǔ Xùn, 1881-1936), haqiqiy ismi Chjou Shujen (周树人, Zhōu Shùrén) — XX asrning birinchi yarmida Xitoy

⁴ Máo Dun (茅盾, Máo Dùn), asl ismi — Shen Yanbín (沈雁冰, Shěn Yànbīng, 1896 —1981) — xitoy yozuvchisi, jamoat arbobi.

⁵ Jiang Guansi (蒋光慈, Jiǎng Guāngcí; 1901 —1931) — xitoy shoiri, jurnalist, adabiyotshunos, davlat arbobi.

⁶ Tyan Xan (田汉, Tián Hàn, 1898 - 1968) — xitoylik dramaturg, teatr arbobi, bastakor, tarjimon va shoir, 1949 yilda Xitoy xalq respublikasi madhiyasiga aylangan "Ko'ngillilar marshi" (1935) muallifi sifatida tanilgan.

⁷ Go Mojó (郭沫若, Guō Mòruò, 1892–1978) - xitoylik yozuvchi, shoir, tarixchi, arxeolog va davlat arbobi, Xitoy Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti (1949–1978).

⁸ Ouyang Yuychian- (1889 - 1962) Xunan provinsiyasi, Liuyang shahrida tug'ilgan, Xitoyning materik qismida taniqli yozuvchi, ssenariy muallifi va rejissyor bo'lgan.

⁹ Xong Shen (洪深 1894 - 1955) xitoylik dramaturg, rejissyor va ssenariyavis, kino va drama nazariyotchisi. XX asr boshlarida dramaturglar Tyan Xan va Ouyang Yuychian bilan bir qatorda xitoy zamonaviy dramaturgiyasining asoschilaridan biri.

¹⁰ Qarang: 田汉选集 (戏剧诗歌集) 1993年, 万象书店。

¹¹ Qarang: 《茅盾作品集》2008年, 人民日报出版社出版的图书。

¹² 洪深生平. 中国海洋大学. [2010-12-24]

¹³ 中国现代文学史。1917-1997。北京/2008。

¹⁴ Traviata (ital. La traviata — "yiqilgan", "yo'qolgan" ma'nosini anglatadi) — Juzeppe Verdining 3 pardali, 4 sahnali operasi, Aleksandr Dyumaning "Kameliyalar xonimi" romani asosida Franchesko Mariya Piavening librettosida yozilgan (1848).

¹⁵ 1907-yilda Zeng Syaogu (曾孝谷) tomonidan xuddi shu nomdagi roman tarjimasidan pyesa yaratadi

最早的话剧 - 《黑奴吁天录》来源: 文学百科 专题: 文学之最. <https://www.mifang.org/>

mashhur fransuz dramasi “Traviata” (《茶花女》)¹⁶ va “Qora qul osmonga chorlaydi” (《黑奴吁天录》¹⁷) dramasi namoyish etildi. Shundan so‘ng Shanxayda “Chunyang uyushma”si (“春阳社”) tashkil etildi va “Qora qul osmonga chorlaydi” dramasi yana bir bor sahnada namoyish etiladi, bu esa xitoy dramaturgiyasining niholiga aylandi. 1911-yil inqilobidan so‘ng, “Bahorgi tol uyushma” a‘zolari Ouyang Yuychian (欧阳予倩)¹⁸ va Lu Jing¹⁹ (陆镜) birin-ketin Xitoyga qaytib keldilar va Shanxayda “Yangi drama izdoshlari uyushmasi” (“新剧同志会”) ni tashkil etishdi, ular uyushma orqali an’aniviy mumtoz xitoy dramalardan farq qiluvchi yangi dramalarni (ya’ni, zamonaviylashgan) jadallik bilan namoyish etishdi. Shundan so‘ng inqilob va taraqqiyotni targ‘ib qiluvchi yangi dramalar asta-sekin ommalasha boshladi.) 1907-yilning bahorida Yaponiyada tahsil olayotgan xitoylik talabalar tomonidan tashkil etilgan “Bahorgi tol uyushma” (“春柳社”) sida mashhur fransuz dramasi “Traviata” (“茶花女”)²⁰ va “Qora qul osmonga chorlaydi” (“黑奴吁天录”)²¹ dramasi namoyish etildi. Shundan so‘ng Shanxayda “Chunyang uyushma”si (“春阳社”) tashkil etildi va “Qora qul osmonga chorlaydi” dramasi yana bir bor sahnaga namoyish etiladi, bu esa xitoy dramaturgiyasining niholiga aylandi. 1911-yil inqilobidan so‘ng, “Bahorgi tol uyushma” a‘zolari Ouyang Yuychian (欧阳予倩)²² va Lu Jing²³ (陆镜) birin-ketin Xitoyga qaytib keldilar va Shanxayda “Yangi drama izdoshlari uyushmasi” (“新剧同志会”)²⁴ ni tashkil etishdi, ular uyushma orqali an’aniviy mumtoz xitoy dramalardan farq qiluvchi yangi dramalarni (ya’ni, zamonaviylashgan) jadallik bilan namoyish etishdi. Shundan so‘ng inqilob va taraqqiyotni targ‘ib qiluvchi yangi dramalar asta-sekin ommalasha boshladi.

¹⁶ Traviata (ital. La traviata — “yiqilgan”, “yo‘qolgan” ma’nosini anglatadi) — Juzeppe Verdining 3 pardali, 4 sahnali operasi, Aleksandr Dyumaning “Kameliyalar xonimi” romani asosida Franchesko Mariya Piavening librettosida yozilgan (1848).

¹⁷ 1907-yilda Zeng Syaogu (曾孝谷) tomonidan xuddi shu nomdagi roman tarjimasidan pyesa yaratadi
最早的话剧 - 《黑奴吁天录》来源：文学百科 专题：文学之最. <https://www.mifang.org/>

¹⁸ Ouyang Yuychian- (1889 - 1962) Xunan provinsiyasi, Liuyang shahrida tug‘ilgan, Xitoyning materik qismida taniqli yozuvchi, ssenariy muallifi va rejissyor bo‘lgan.

¹⁹ 陆镜若 Ilk xitoy dramaturgiyasining asoschilaridan biri. Uning ismi Fuxuan, sahna nomi Jingruo.

²⁰ Traviata (ital. La traviata — “yiqilgan”, “yo‘qolgan” ma’nosini anglatadi) — Juzeppe Verdining 3 pardali, 4 sahnali operasi, Aleksandr Dyumaning “Kameliyalar xonimi” romani asosida Franchesko Mariya Piavening librettosida yozilgan (1848).

²¹ 1907-yilda Zeng Syaogu (曾孝谷) tomonidan xuddi shu nomdagi roman tarjimasidan pyesa yaratadi
最早的话剧 - 《黑奴吁天录》来源：文学百科 专题：文学之最. <https://www.mifang.org/>

²² Ouyang Yuychian- (1889 - 1962) Xunan provinsiyasi, Liuyang shahrida tug‘ilgan, Xitoyning materik qismida taniqli yozuvchi, ssenariy muallifi va rejissyor bo‘lgan.

²³ Lu Jing(陆镜若) Ilk xitoy dramaturgiyasining asoschilaridan biri.

²⁴ Karang. 现代戏剧文学.

1912年年初，陆镜若在上海召集马绛士、吴我尊、欧阳予倩等原“春柳社”骨干，又吸收了些新成员，组织“新剧同志会”，开始了职业演剧。多元文化与现代戏剧。百度学术[引用日期2015

Shu davrda dramaturgiyaning rivojida Ouyan Yuysyan ijodining xissasi katta bo'lgan. Ouyan Yuysyan shu davrda yirik pyesalar yaratdi, jumladan, "Pan Szinlyan"²⁵, "Xijron"²⁶, "Negrlarning tavbasi"²⁷, "Men xarakat qilgandan boshlab"²⁸ va bu asarlar saxnalashtirildi²⁹.

Xitoylik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy xitoy dramaturgiyasining rivojlanishi ikki davrga bo'lganlar, ya'ni "demokratik inqilob" ("民主革命") davri va "sotsialistik inqilob va qurilish" ("社会主义革命与建设") davri. Bu ikki davrning o'zaro bog'liqlik kuzatilsada, ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega³⁰.

XX 20-yillar oxirida ular xitoy real hayoti bilan badiiy obrazlar o'rtasi nomutanosiblik kuzatilgan. 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, Lao She orqali yangi xitoy adabiyotida ijtimoiy-maishiy roman vujudga kelgan, bu an'anani adiblar Mao Dun, Ba Jin, Jan Tyanlar rivojlantirdilar. 20-yillarda Van Tunjao, Chyuy Dafu va boshqa realistik yo'nalishdagi yozuvchilar o'z yo'llarini boshladilar. Ularning asarlarida o'sha yillarda Xitoydagi og'ir ijtimoiy hayot-ko'rsatilgan: feodalizm davrining ortga ketishi, yangi shaxsning shakllanishi va uning jamiyat bilan o'zaro munosabati.

Biroq ichki va tashqi qarama-qarshiliklar kuchayishi va mamlakatda ishchilar harakatining faollashuvi bilan tanqidiy realizm ustalari bu yo'nalishning cheklanganligini seza boshladilar, boshqa badiiy prinsiplarni qidirishni boshladilar. Tanqidiy oqimdagi realistlar oddiy insonni ezilgan shaxs sifatida ko'rsatganlar, unga yordam berish haqida gapirganlar, amaldagi hayotni o'zgartirishini talab qilganlar, biroq ularni proletariatning faol harakati bilan bog'lanmaganlar. Xitoyda inqilobiy jarayonning rivojlanishi shuni tasdiqladiki, xalq eziluvchi sinfdan kurashuvchan, faol sinfga aylanib borgan. Hayot yangi qahramonni yuzaga keltirdi, uning o'z haq-huquqi uchun kurashish hayot-mamot ishiga aylanib qolgan. Bu adabiyotda yangi usul - ijtimoiy realizm usulining yaratilishiga olib keldi va bu dramaturgiyaga ham kirib bordi.

30 yillarning boshlarida adabiyotning asosiy yo'nalishi tanqidiy va ijtimoiy realizm qabul qilingan. Xitoyda bu davrdagi - Xitoy burjuaziyasi davrida - ijtimoiy realizmga o'tish ancha qiyinroq edi, chunki feodalizm xususiyatlari xali xam mamlakatda mavjud bo'lib kelmoqda edi. Bu davrdagi yozuvchilar oldida xalqqa yaqinlashish, yo'l boshchilik va siyosiy o'qishlarga jiddiy qarash, kabi vazifalar turar edi. Shanxay shaxrida tuzilgan "So'l yozuvchilar uyushma" ("中国左翼作家联盟")³¹ si oldida xam shu kabi vazifalar turardi. Bu uyushmaga 50 dan ortiq odam a'zo bo'lib, ulardan ko'pgari turli xil adabiyot birlashmalarining a'zolari edi. Bularning a'zolari: Lu Sin, Mao Dun, Xu Ye Pin, Jou Shi, Din Lin, Ye Shen Tao, Tyan Xan, Yuy Da Fu, Fen Nay Chao, Sya Yan va boshqalar.

²⁵ 潘金莲 (话剧) 1998, 新东方书店

²⁶ 黑奴恨 (话剧) 1992, 新东方书店

²⁷ 回家以后 (话剧) 1993, 重庆中周出版社

²⁸ 青纱帐里 (话剧) 1937, 大时代出版社

²⁹ 中国现代文学史。1917-1997。北京/2008。

³⁰ 论戏剧性。北京大学出版社出版图书。2009

³¹ Xitoy "So'l yozuvchilar uyushma" Xitoy Kommunistik partiyasi boshchiligidagi inqilobiy adabiy guruh bo'lib, Lu Sin tashabbusi bilan tashqil

etiladi.(中国左翼作家联盟是中国共产党领导的、以鲁迅为旗手的革命文学团体。1930年3月2日)、中国现代文学史 1917—2010(精编版)/朱栋霖主编。—北京:北京大学出,2011.

Shu jamiyat “So‘l yozuvchilar uyushma” ushbu vazifalar o‘z oldilariga maqsad qilib olgan edilar: faoliyatchilar (adabiyot va san‘at sohasida) jamiyatda birinchi pog‘onalarida turishlari zarur edi. Jamiyatdagi reaksiyon-konservativ xolatlarini yo‘kotishda odamlarni boshqarishlari kerak edi. Bu jamiyat ushbu jurnallarni bosib chiqarar edi: “Oylik” (“萌芽月刊”), “Yangi yosh” (“新青年”), “Pioner” (“拓荒者”), “Jahon madaniyati” (“世界文化”), “Adabiyot” (“文学”), “Adabiy oylik” (“文学月报”), “Adabiy xayot” (“文学生活”).³²

“Yangi yosh” (“新青年”), “Yangi oqim” (“新潮”)kabi jurnallarda Ibsen (易卜生Yì bō shēng), Bernard Shaw (萧伯纳 Xiāobó nà), Strindberg (斯特林堡Sī tè lín bǎo), Romen Rollan (罗曼·罗兰Luómàn·luólán), Chexov (契诃夫Qì hē fū), Uayld (王尔德Wáng‘ěrdé)³³ kabi jahonga mashhur dramaturglarning dramalari, hamda yapon adibi Koji Takeshi³⁴ asarlari ketma-ket tarjima qilinib, xitoy xalqiga tanishtirildi. Bular zamonaviy dramaturgiyaning jadal rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. “Yangi yosh” jurnalida adib Chian Suantongning (钱玄同)³⁵ ilk bor maqolasi nashr etiladi, shu tariqa “Yangi Madaniyat” harakatining (《新文化运动》) ko‘plab mashhur arboblarning maqolalari chop etila boshlanadi.

Oktyabrdan keyingi davrda milliy ozodlik kurashi yuksalganida an‘anaviy xitoy teatri eski sahnaning yetuk ustozlari, avvalambor Mey Lanfan faoliyati tufayli milliy chegaralardan oshib o‘tdi 1920-yilda Mey Lanfan Yaponiyaga gastrolga bordi, bu esa xitoy teatrlarining xorijdga bo‘lgan ilk sayoxati edi. Zamonaviy milliy dramaturgiya dastlabdanoq san‘atning ko‘p qatlamli hodisasi edi. “Xuazyuy” ((话剧)- “og‘zaki drama”)³⁶ – zamonaviy dramaning ilk namunalari matbuotda chop etila boshladi. “Og‘zaki drama” deya nomlanishi bu san‘at turining o‘ziga xosligini, dramaning an‘anaviy, eski, sinkretik musiqiy shaklidan tubdan farq qilishiga ishora beradi. Nafaqat tilda, personajlar nutqida, balki asosiy badiiy tasvir vositalari, pyesalarning parda va aktlarga bo‘linishida, qahramonlarning libos va sahna dekoratsiyalarida keskin farqlar ko‘zga tashlandi. Yangi san‘at – bu voqelikni yangicha idrok etish shakli, xalq ma‘naviy hayotining yangi sohasi sifatida maydonga chiqdi. Uni an‘anaviy teatrdan farqli jihatlaridan yana biri muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik va boshqa dolzarb masalalarning ko‘tarilishidir. 20 yillar Xitoy dramaturgiyasi rivojida 3 ta asosiy tamoyil kuzatiladi: an‘anaviy teatr bilan bog‘liq milliy meros; xorijiy dramaturgiyani o‘zlashtirish; zamonaviy milliy drama. “Xuazyuy” teatri adabiy asosida paydo bo‘ldi. Unda halqqa chuqur ishongan ilg‘or va demokratik kayfiyatdagi dramaturglar ilk qadamlar quydilar. Ularni izlashdagi faollik farqlab turar edi. Ular o‘zga yurt madaniyati va fanini o‘zlashtirish uchun jasurlik bilan o‘zga o‘lkalarga ketar edilar (Ouyan Yuysyan, Sya Yan – Yaponiyaga, Xun Shen, Syun Fusi – AQSHga va hokazo). Jahon madaniyatini idrok etish ular ega bo‘lgan xorijiy til, tashrif buyurgan mamlakat orqali amalga oshdi. Har birining o‘ziga xos ijodiy yo‘lida kim, qachon va qay tarzda ularga ta‘sir etganini kuzatish juda qiyin edi. Umuman olganda bu tashabbuskor, tadbirkor, ma‘rifatli insonlar o‘sha

³² 中国现代文学史 1917—2010(精编版)/朱栋霖主编.—北京:北京大学出版社,2011.

³³ O‘sha manbaa. 50 bet

³⁴ Koji Takeshi (1885-1976)yapon yozuvchisi, dramaturg va rassomi

³⁵ Chian Suantongning(钱玄同.1887-1939), ilgari Chian Sya nomi bilan mashhuredi, 4-may inqilobiy harakati arafasida u Syuantun nomini oldi. Zamonaviy xitoy muta fakkiri, filolog va yangi madaniyat harakati tarafdori.

³⁶ O‘sha manbaa. 84 bet

davrdagi xitoydan ko'ra ilg'or bo'lgan mamlakatlarda intellektual tayyorgarlikdan o'tdilar. O'zga madaniyat va tarixiy tajribani o'zlashtirib, ular o'z xalqlari bilan ma'naviy-ruxiy aloqani uzmaydilar. Vatanga qaytib, ular xalqning ongini uyg'otishga, jamiyatning taraqqiyotini jadalashtirishga harakat qildilar. Xitoy dramaturgiyasida namoyon bo'lgan turli yo'nalishlar ichida sotsialistik realizm belgilarining vujudga kelishi kuzatilgan tanqidiy realiz asosiy bo'lib qoldi. Taxminan shu davrda nashrda zamonaviy "*xuaszuy*" dramaturgiyasining ilk pyesalari chop etiladi. Yangi san'at voqealari idrok etishning yangi shakli, xalq ma'naviy hayotining yangi soxasi edi. Qizig'i faoliyatga, konfutsiy mafkurasi va o'z-o'zini barbod qilgan feodal madaniyat bilan kurashga intilayotgan demokratik tomoshabinga ilg'or g'oyalarni yetkazib berar edi. Zamonaviylikning muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-yetuk va boshqa dolzarb muammolarni qo'ndalang qo'yilishi ham mazkur dramaturgiyani an'anaviylikdan farqlaydi³⁷.

Yangi san'atning shakllanishida muxim rol o'ynagan omillardan biri maktab dramasi bo'ldi. U G'arbiy Yevropa namunasi bo'yicha tashkil qilingan o'rta maxsus o'quv yurtlarida paydo bo'ldi. 1905-yilgacha bu drama xorijiy mualliflarning asarlarini asl tilda o'quvchi va ularning oila a'zolarining tor doirasi uchun ijro etib bergan. Keyinroq uning faoliyati mazkur maktablar chegarasidan chiqib ketdi. Masalan, Shanxayda 1906-yilda keng omma uchun 1901-yilda xitoy tiliga tarjima qilingan G. Bicher-Stouning "*Tom amakining kulbasi*" deb nomlangan asari saxnaga qo'yildi. Undan milliy zulm, irqiy kamsitish, taxqirlashga qarshi adolatli g'azab ifoda etildi. O'sha paytda bu butun mamlakatni qiziqtarar edi, chunki o'sha yillarda Amerikaga sariq tanglilarning kirib borishi ta'qiqlangan edi. Mazkur spektakl ijtimoiy ta'sirdan tashqari ijobiy mazmunga ham ega edi: u teatrga yangi ufq va badiiy vositalarni – Xitoyda shu paytgacha noma'lum bo'lgan dekoratsiya – chiroq effektlarni, zamonaviy liboslarni ochib berdi.

Zamonaviy dramaturgiya tarixida ikkinchi ahamiyatli hodisa – bu "Venmin si" (yoki "Tunsu xuaszuy") nomi bilan ma'lum bo'lgan dramaning paydo bo'lishi edi. Bizning fikrimizcha bu iborani "ma'rifiy drama" deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday tarjima uchun asos nafaqat "Venmin" so'zining ma'nosi, balki mazkur teatrning repertuari ham bo'la oladi "Ma'rifiy drama" bir tomondan Xitoy me'rosining an'alarini XVIII-XX asr asarlarini sahnaga qo'yib, davom ettirdi, boshqa tomondan esa Xitoyda xorijiy san'at targ'ib qilindi. Mazkur teatrning faoliyati 1911-yildagi burjua-demokratik inqilobning voqealari hamda Xitoy ilg'or arboblarning o'z vatandoshlarini jahonning ijtimoiy fikri va badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq edi. Bunday asarlarning dastlabkisini 1893-yilda Lin Sin (1852-1924) tarjima qilgan A.Dyumaning "Kameliyalik honim" deb nomlangan asari bo'ldi. U o'sha paytda xorijiy adabiyotining kam sonli muxlislarini larzaga keltirdi. Bundan so'ng jurnallarda fransuz va ingliz teatrlari haqida, G.Ibsen, L.Tolstoy va boshqa xorijiy adiblar haqida maqolalar paydo bo'ldi. Bu davrdan boshlab teatr jamiyatda ayollarning teng huquqli holati uchun kurashni boshlab yuboriladi, hamda bu davr dramaturgiyasida bu muammo markaziy bo'lib qoldi. XX asrning 20-yillarigacha ayol rollarini an'anaga ko'ra erkaklar ijro etgan.

Ulkan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy voqealar bilan (Ixtetualarning isyoni, 1990-yil; 1911-yil Burjua-demokratik inqilobi; Birinchi jahon urushi; Buyuk Oktabr sotsialistik inqilobi; 1919-yil "4-may" xarakati) to'yingan ikki o'n yillik 1900-1920-yillar zamonaviy milliy dramaturgiyasining vujudga kelishi shakllanishining davridir. Uning rivojlanishining keyingi yo'lini anglash uchun izlanishlarning ikkala yo'nalishi – jahon san'atini kuchaytirilgan tarzda o'zlashtirilishi va shu bilan birga an'anaviy san'atni saqlab qolishi muhimdir. Yigirmanchi

³⁷ 中国现代文学史 1917—2010(精编版)/朱栋霖主编.—北京:北京大学出,2011.

yillarning boshida Xitoyga xorijiy adabiyotning oqimi kirib keldi. Xorijiy dramaturgiyani o'zlashtirish Xitoy uchun antik davrdan zamonaviy davrgacha bo'lgan jahon san'atining boyliklariga yo'l ochib berib, barcha teatrlari bilan madaniy almashinuv imkoniyatini yaratib berdi. Ibsenning "Qo'g'irchoq uy" yoki "Nora" dramasi aloxida muvaffaqiyat qozongan edi. U avvaliga maktablardan, keyin esa Xitoyning barcha dramatik teatrlarida saxnalashtirilgan. Noraning obrazi yoshlar qalbida yashar edi. Dunyoning barcha mamlakatlaridek Xitoyda ham "Skandinaviyalik yozuvchi go'yo ustoz va jarchi kabi faqatgina ozod va har tomonlama rivojlangan inson bo'lganidagina haqiqiy ayol bo'lishini anglagan ayollarga ta'sir qildi"³⁸. Ayol masalasi dramada shu qadar keskin qo'yilgan ediki, Xitoy xukumati Ibsenning mashxurligi va unga bevosita taqlidni ham qoraladilar.

Ammo nafaqat Ibsen ilg'or ijtimoiy qatlamlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi, balki jahon dramaturgiyasining ko'plab asarlari: L.N.Tolstoyning "Zulmatning hukumronligi", "Zulmatda yorug'lik ham nur sochmoqda", "Tirik murda", "Ma'rifat mevalari"; I.S.Turgenevning "Qishloqdagi bir oy"; A.N.Ostrovskiyning "Jala", "Kambag'allik ayb emas", "Bo'ri va qoylar", "Qora niqoblar", "Yulduzlarga"; A.P.Chexovning "Chayka", "Yubiley", "Tuy", "Olcha bog'i", "Uch opa-singil", "Ayiq", "Taklif", "Ivanov", "Vanya amaki" kabi asarlar xitoy tiliga arjima qilinib xitoy xalqiga tanishtirildi.

Tarjimalardan tashqari Xitoyga xorijiy dramaturgiya kirib kelishining boshqa shakli – milliy mosshlashuv ham mavjud edi. Uning doirasida "asl tildagi asarning muallifi bo'lgan dramaturgning asosiy g'oyasini tubdan o'zgartirish va shu bilan qatorda sharoit, holat, asar qahramanlarining ismlarini o'zgartirish, ya'ni ularning barcha milliy xitoychaga o'zgartirish mumkin edi"³⁹. Xitoy zamonaviy dramasi o'zining dialoglari, kompozitsiyasi, publitsistikasining "yevropalashtirilgan" shakliga ega bo'lishiga qaramasdan, milliy qadimgi madaniyatga ildiz otgan, faqatgina o'ziga xos maxsus belgilarga ega.

Avvalambor yangi dramaturgiya va teatni qadimgi shakllar bilan epik xarakter uyg'unlashtiradi. Ikkala turning epikligi asosiy estetik qonun va xususiyatlarning umumiylikini shartlab beradi. Umuman "Xuaszyuy" asarlaridagi aksentlar an'anaviy milliy dramadagidek xissiy tomonga emas, balki ratsionalistik tomonga berilgan. Tomoshabinga ta'sir etishning boshlang'ich tamoyili uni o'rganayotgan kuzatuvchiga aylantirish, haqiqiylikni badiiy idrok etishga ham nafas qilishdir. Butun xitoy san'ati uchun xos bo'lgan estetik idrokning mazkur xususiyati ilk o'rta asr davridayoq estetik fikrning mashhur vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va umumlashtirilgan. Tomoshabin doimo "ko'zga ko'rinmas hodisalarning dasturlashtirilgan ma'nosi haqida" berilgan axborot mujassam bo'lgan kichik qismdan umumiy tasvirni gavdalantirishga, sahnada bo'layotganni voqealar zanjirilagi xalqa sifatida tasavvur qilishga tayyor edi. Bundan asarning kompozitsiyasi, voqea tomoniga alohida munosabat kelib chiqadi. Bir aktli pyesada bu saxna – epizod, ko'p aktli pyesada esa ko'plab sahna epizodlar, ularning har biri aloxida muhimdir. Bitta sahna boshqa sahnadan kelib chiqishi shart emas. Drama muallif g'oyasi bilan mustahkamlangan sahnalarning o'ziga xos "montaji"dan iborat bo'lishi mumkin. Syujet (u tomoshabinga ham ma'lum bo'lishi mumkin) fikriga xizmat qilishiga qaratilgan. E'tibor voqealarni dialogik tarzda bayon etishga qaratilgan. Bundan dialog dramatik xarakterga ega bo'lishi shart emas, biz Yevropa dramasi buni kuzatamiz. Xitoy dramasi esa kundalik turmush voqealari yoki falsafiy mavhum mulohazalar haqida ketishidan qat'iy nazar dialog sokin bo'ladi.

³⁸ Nikolskaya, L. A. Guan Xan i dramaturgiya Kitaya XX veka M. 1980g.

³⁹ 中国戏剧史/北京/2015年.

XX asr birinchi yarmi Xitoy dramalarining mavzu ko'lamini. Xitoyda teatr va dramaturgiya asrlar mobaynida milliy an'analar o'zanida rivojlandi. Biroq XX asr boshlariga kelib g'oyaviy yo'nalish, mazmun-mundarija, shaklda yangilanishlar, o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrga kelib jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlar tufayli milliy san'atda murakkab jarayonlar yuzaga keldi. An'anaviy teatrda yuzaga kelgan inqirozli holat xorijiy madaniyatni faol o'rganish va shu asnoda dramaturgiya va teatrning yangi ko'rinishini rivojiga turtki bo'ldi. Bu san'at Xitoyga G'arbdan inqilobiy-demokratik g'oyalar bilan birga kirib keldi⁴⁰.

Yangi dramaturgiya tarixi Tyan Xan va Xun Shenning maishiy mavzudagi pyesalari bilan boshlangan. Shoir Go Mojoning tarixiy, Sao Yuening o'tkir ijtimoiy mavzudagi pyesalari ushbu dramaturgiyaning yetuk asarlari sanaladi. Nasrda bo'lganidek, dramaturgiyada va teatr inqilob g'oyalarini tashviq qilish vositasiga aylangan edi.

XX asrning 30 yillariga kelib, Xitoyda bir muncha qaltis siyosiy vaziyat yuzaga keldi: Xitoyga Yaponiya hujumi xavf solardi. Yapon bosqinchilariga qarshi kurash harakatlari vaqtida teatr va dramaturgiya rivoji yanada faollashdi. Xamkorlikda chiqarilgan "Qishlokdagi maqola", "Armiyadagi maqola" shiorlari ostida ruxlangan ko'pchilik teatr ijodkorlari o'z faoliyatlarini boshladilar va ular vatanni halokatdan qutqarishga qaratilgan asarlarni sahnalashtirdilar, shu bilan bir qatorda dushmanga qarshi targ'ibot qiluvchilar jamoasi va bolalar truppasi turli yo'llar bilan ichki tumanlarga, qishloq va frontlarga kirib bordi. Bulayotgan o'zgarishlarga muvofiq ravishda teatrda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi, yani teatr tobora ommabop tus oldi. Unda urushdagi vaziyatni tezkor aks ettirish imkoni paydo bo'ldi. Targ'ibot ishlari jarayonida ko'cha tomoshalari, choyxona tomoshalari, notiqlik san'ati, tantanali yurish tomoshalari, chiroq tomoshalari va boshqa chiqishlar osonlik bilan tashkil qilindi. Shu bilan bir vaqtda muallifi noma'lum bo'lgan "Yaxshilab adabini berish", "Oxirgi bir metr" va "Qamish kuyi" nomli kichik shakldagi dramalar keng tarqaldi. Bu davrda iste'dodli dramaturg sifatida shakllangan yozuvchilar ijodi yangi bosqichga o'tdi. Yapon bosqinchilariga qarshi kurash mavzusidagi "Zaminni asrash", "Sakkiz yuz paxlavon", shuningdek Sya Yanning "Biz konturxujum kilishimiz kerak", Xuang Meyning "Shaytonni savalash", Ey Changning «O'z uyiga qaytib bormoq», Yu Ling (taxallusi Long Jing) ning "Bitta o'qni tejash", Si Lingning "Alanga ichida" kabi asarlari aynan shu davrda yaratildi⁴¹. Bu dramatik asarlar o'zining xayotiyligi, jangovorlik hususiyatga boyligi bilan ommaning mehrini qozondi. Siyosiy ahvolning barqaror emasligi, vaxtning tez o'tishi tufayli bu dramatik asarlarni bir-oz qo'pol, bachkana, sxemalashtirilgandek tasavvur qilish mumkin. Yapon bosqinchilariga qarshi jangda kuchlar teng kelgach, teatr tomoshalari asta sekin qishlok, urush xududlaridan front ortidagi shaharlarga o'tdi. Sahna ko'chadan teatrda ko'chdi. Ko'p xarakatli (aktli) pyesalar yaratildi. Mamlakatning barcha xududlari va Shanxay dramaturglari asarlarida urush mavzusi, Gomindan partiyasi parchalanishi mavzusi ko'tarildi. Bu davrda yaratilgan realistik dramalardan Sya Yanning "Shanxay tomlari ostida" (1937y), «Bir yil oralig'ida» (1938y), "Qalb qo'rgoni" (1940y), "Shaharni eslab sog'inish" (1940y), "Ko'l va daryolarga boy yurtni madx etish" (1942y), "Fashist bakteriyasi" (1942y), "Baland baland ko'p o'tlar" (1944y) va "Dunyoning narigi chetidagi xushbuy o't" (1945y) kabilarnie'tirof etiladi⁴².

⁴⁰ Nikolskaya. L.A. Tyan Xan i dramaturgiya Kitaya XX veka. Izd-vo Moskovskogo Universiteta, 1990. str.15

⁴¹ 中国现代文学史 1917-1997/北京/2008年。306-310。

⁴² O'sha manbaa. 306-310。

40-yillarda dramaturg Tyan Xanning ikkita katta mavzu - yapon bosqinchilariga qarshi kurash va demokratik mavzularida ijod qila boshladi⁴³: *“Kuz tovushi tarifi”* (1941y), *“Shamol va yomg‘irda qaytgan qayiq”* (1942y) yana bir nomi *“Ko‘rishguncha Shanxay”*, shuningdek Xun Shen va Sya Yan xamkorlikdagi *«Oltin davr»* (1942y), *“Inson go‘zalligi”* (1946-47y), *“Koreya axvoli”* (1948y) asarlari yaratildi.

Song Chjidening *“Qamchi”* va *“Vatan bizni chorlamoqda”* kabi 40-yillarda yaratgan asari boshqa asarlarga nisbatan tasirliroq. Uning *“Qamchi”* nomli asarda shimoldan Chang Chingga kelgan bir guruh talabalarning xayoti, ularning qiyinchiliklari, oxir oqibat jamiyatda sodir bo‘layotgan tubanliklar, jirkanchliklar, yoshlarning burjuaziyaga oid bilimlarining sustligini tanqid ostiga olinadi. Drama Chong Chingda namoyish etilganda juda katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Dramaturgning yana bir dramasida *“Vatan bizni chorlamoqda”*, yapon bosqinchilari tomonidan bosib olingan Gong Kongdagi bir ziyoli oilanning inqilobchilar tasiri ostida o‘z vatanini tark etishi jarayoni tasvirlangan. Inqilobchilar va o‘qimishli yoshlar o‘zini yapon bosqinchilariga qarshi kurashga bag‘ishlaganlari ulug‘langan. Ozodlik kurashi davrida Song Chjidening yana bir aktli *“Maymunlar to‘dasi”* xajviy komediyasini yaratdi.

Yu Ling (taxallusi Long Jing) ning dramalarining ko‘pchiligida Shanxaydagi real xayot mavzu qilib olingan. Shahardagi ko‘pgina qiyinchiliklarni va yapon bosqinchilariga ko‘rsatilayotgan qarshiliklarni tasvirlash bilan bir qatorda Yapon imperializmi va xalqni taqib qilgan vatan sotqinlarini va jinoyatchilarni ham fosh qilgan. *«Tunggi Shanxay»*(1939y), *“Uzun tun”* (1942y) Yu Lingning urush davrida yozilgan eng sara asarlaridir⁴⁴. *“Tungi Shanxay”*da progressiv ruxdagi Meiding Chun oilasining Shanxayda kechgan fojeali taqdiri orqali shu davrdagi ko‘plab oilalar taqdiri tasirlangan. Unda Shanxaydagi jamiyat qatlamida insonning turmush-tarzi, xalqning kun sayin yaponlarga qarshilik ko‘rsatish istagi oshib borishini nisbatan keng tarzda ochib berishga harakat qilingan. *“Uzun tun”* dramasida Shanxay bosib olingach, taxminan bir guruh boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari xukumat tasirida olib borilgan urush holati bosh qaxramon Yu Veysin va uning sevgilisi Chjeng Laoduo obrazlari orqali ochib berilgan. Barcha obrazlar orqali vatanini sevadigan ziyolilar, ular xayotdagi o‘zgarmas «xayotning qorongu yo‘llarida qoqilmaslik» aqidasisiga, axloqiy qadriyatlarga amal qilib, o‘z maqsadlaridan adashishdan, bosqinchilarga taslim bo‘lmasdan o‘z- orzu umidlariga erishish yo‘lidagi kuchli iroda egalari tasvirlangan.

Chen Bay Chen o‘zining mahorat bilan yozilgan hajviy komediyalari orqali mashhurdir. U urush davrida *“Qiyinchilik paytidagi erkaklar va ayollar”*(1939y), *“Turmush qurish musiqasi”*(1942y) va boshqa ko‘plab dramalar yaratdi. U birinchilardan bo‘lib urush boshida Nankingdagi uzoq front ortidagi jamiyatning turli xil jirkanch ko‘rinishlarini tasvirlab berdi. Bosh obraz Xuang Yang bir mustaqil ayoldir, u erkak kishiga qaram bo‘lishni istamaydi, o‘z mehnati evaziga yashashni istaydi, shu sababli uyini tashlab ketadi. U jamiyat ichiga kirishga xarakat qiladi. Har joyda ishlash uchun intiladi, lekin u har joyda omadsizlikka uchraydi. Shu tariqa jamiyat u uchun hech qanday “bog‘” emas, balki “jarlik” va “botqoqdir” degan fikrga keladi. U ishsizlik azobini yetarlicha tortadi. Istasa istamasa oxir oqibat oila bekasi va farzandining onasi bo‘ladi, faqat xayot qiyinchiliklarini ko‘radi. Chen Bay Chen Xuang Yangning fojiali taqdirini komediya usulida tasvirlab bergan, chorasizligini samimiy ko‘rsata olgan. Dramada tragikomediya o‘zaro uygunlashib ketgan. 1945-yil nashr etilgan Chen Bay

⁴³O‘sha manbaa.306-310

⁴⁴O‘sha manbaa

Chenning “Su xan guli” yana bir kuchli dramasi ziyolilar mavzusi yoritilgan, bosh qaxramon doktor Li Ju Kong urushning og‘ir yillarini, qat‘iyatlik, o‘sha paytda ham temirdek metin, qishdek qattiq, soviq qorong‘u jamiyatni tanqid ostiga oladi.

Van Gaoning “*Lavozimga ko‘tarilish rejasi*” (1945) pyesasi Chen Bay Chenning yaratgan satira namunalarini eslatadi. Pyesa syujetiga ikki o‘g‘rining mansabga ko‘tarilishini ularning tushida ayon bo‘lishi voqeasi asos qilib olingan. Drama syujeti quydagicha: Tunda bir eski uyda, ikkita o‘g‘ri mansabga ko‘tarilib boyib ketganliklarini tush ko‘rishibdi. Tushlarida o‘zlarini uyezd boshlig‘i va bosh kotib o‘rnida ko‘rishadi. Yozuvchi pyesada sodir bo‘lgan hodisalarni (1912-1942) yillardagi Xitoy respublikasining ilk yillari fonida yozadi. Aslida ziyarak odam bir qarashdayok satiraning realligini Gomindanglar hukmronlik qilgan davrni “Amaldorlar dunyosining zamonaviy ko‘rinishini” bilib oladi. Dramada tush ko‘rish yordamida giperbola va karikatura ko‘rinishidagi satira usulini qo‘llagach, salbiy insonning jirkanch odatlarini ochib beradi. Natijada drama juda muvaffaqiyatli chiqishiga sabab bo‘ladi. Drama syujetiga fantastika kirib keladi, lekin jamiyatdagi xaqiqat fosh bo‘ladi. Fantastika va reallik birlashadi. Bunda komik mano va komik syujet, sahna, usul hammasi o‘z natijasini bergan to‘laqonli xajviy komediya yaratilgan.

Vu Chjuguang o‘zining “Qaqnuslar shahri” bilan ko‘pchilikni etiborini tortdi va o‘sha paytdagi yangi buyuk dramasi bo‘ldi. Uning uch aktli “*Bo‘ronli tunda kaytgan odam*” dramasi romantizm usulida tasvirlangan. Yana bir “*Shaytonni ushlab*” (1946y) asari kuchli hajviy komediyadir. Drama xalq orasida yurgan gaplarga (mishmishlar) asoslangan hikoya bo‘lib, unda mishmishlar real xayotga ishora qilingan. Odamlar orasida tutilgan iblislar va boshqa yomon ruhlar (shayton) ushlangach, ular uyquga ketadi, lekin ming yildan so‘ng uyg‘ongach hammayoqda shaytonlarni ko‘radi. Qiyinchilik bilan ularni yana qo‘lga olib g‘olib bo‘ldi. Dramada yovuz shayton vahshiy ruh, oddiy xalqni xo‘rlagani, ko‘rinishida Gomindangchilarni qilgan yomonliklari, xalq va davlatni xarob qilganliklari real tasvirlangan.

XULOSA

XX asrning boshlariga kelib xitoy adabiyotning asosiy jixati xalq muammosini tasvirlashda, ijtimoiy xayotning salbiy tomonlarini roman, qissa, pyesa va she‘riy asarlarda fosh etishda namoyon bo‘ldi. Inqilobiy davri tufayli adabiyotga chet el adabiyotining ta‘siri juda katta bo‘lgan. Zamonaviylikning muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-yetuk va boshqa dolzarb muammolarni qo‘ndalang qo‘yilishi tufayli dramaturgiyani an‘anaviylikdan tubdan farq qilgan “xuaszyuy” janri vujudga kelgan. Tyan Xan, Xun Shen, Go Mo Jo, Sao Yuy, Sya Yan kabi bir qator dramaturglar yangi davr dramaturgiyasini rivojida o‘z o‘rniga. Bu yillarda ushbu dramaturg yapon bosqinchilariga qarshi kurash va demokratik mavzularida ijod qila boshladi.